

YAPON MUMTOZ ADABIY MANBALARIDA QO'LLANGAN METAFORALAR VA ULARNING DINIY -FALSAFIY TALQINI

Haydarova Umida

Farg'ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasи o'qituvchisi

e-mail: umiimija@gmail.com

ANNOTATSIYA

Kamakura davrida yozilgan "Hojoki" va "Tsurezuregusa" asarlari davr va yo'nalish hamda mualliflar hayotining o'xshashligi bois, ikki asarda qo'llangan metaforalar tahlil qilinib, Lakoff va Johnson konsepti asosida guruhlarga ajratildi. Asarda qo'llangan metaforalarning diniy-falsafiy ma'nolari ko'rib chiqildi. "Hojoki"da ko'rib chiqilgan 26 ta metafora va "Tsurezuregusa" da foydalananilgan 50ta metafora tahlil qilindi va ularning ma'nosidan, "kelib chiqish asosi", kundalik hayotdan olingan "daryo", "suv", "shabnam" kabi metaforalar bilan "maqsad asosi", mavhum tushunchalar "dunyo", "inson" ta'riflangani va "o'tkinchilik" konseptini ilgari surilgani aniqlandi.

Kalit so'zlar: "Hojoki", "Tsurezuregusa", metafora, Lakoff va Jonson konsepti, buddizm

АННОТАЦИЯ

Метафоры, использованные в «Ходзёки» и «Цурэдурегуса», написанных в период Камакура, были проанализированы и разделены на группы на основе концепции Лакоффа и Джонсона. Рассмотрены религиозно-философские значения метафор. Были проанализированы 26 метафор «Ходзёки» и 50 метафор «Цурэдурегуса» и определены их целевые или исходные домены.

Ключевые слова: «Ходзёки», «Цурэдурегуса», метафора, концепции Лакофф ва Джонсон, буддизм.

ABSTRACT

The metaphors used in "Hojoki" and "Tsurezuregusa" that written during the Kamakura period were analyzed and divided into groups based on Lakoff and Johnson concept. The religious and philosophical meanings of metaphors were considered. The 26 metaphors of "Hojoki" and 50 metaphors in "Tsurezuregusa" were analyzed and their target or source domains were defined.

Keywords: "Hojoki", "Tsurezuregusa", metafora, Lakoff va Johnson konsepti, buddizm

KIRISH

“Hojoki”da ifodalangan metaforalar va ularning ma’nolari

Kamono Chomei (1153-1216) Kamakura davrida yashab ijod etgan shoir, musiqachi, yozuvchidir. Otasi Kamo ibodatxonasining monaxi bo‘lib, Chomei sakkiz yoshda ekanida vafot etadi. Buvisi qaramog‘ida bo‘lib, ruhiy tomondan qiyin hayot kechiradi. Shunga qaramay, u adabiyot va musiqaga oshno bo‘ladi. “Hoshshinshu” nomli wakalar to‘plami hamda buddizmdan ta’sirlangan holda 1207-yilda “Hojoki” asarini yozadi. Aslida shinto monaxi oilasida tug‘ilgan bo‘lishiga qaramay, keyinchalik buddizmni qabul qilgan Chomei asarlarida ham buni aks ettiradi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, Kamakura davrida buddizmni omma orasida yoyish ishlari jadal olib borilganligi uchun ham Chomei buddizmning zen yo‘nalishida tarkidunyo qiladi va umrining oxirini kichik bir kulbada o‘tkazadi¹.

“Hojoki” asari xorijiy tillar, xususan, rus tiliga “Записы”, ingliz tiliga “Essays of Idleness” deb tarjima qilingan bo‘lsa-da, “Hojoki”ning asl ma’nosи “4ga 4hajmi kichik kulbada yozilgan esdaliklar” dir.

Tarkidunyo qilgan Chomei Budda yo‘lini o‘rganadi va uning “o‘tkinchilik(mujokan)” g‘oyasini asarda aks ettiradi².

Yuqorida ko‘rib o‘tganimiz kabi tadqiqot ishlari ko‘plab amalga oshirilgan bo‘lsa-da, aynan “Metafora va “Hojoki” “ doirasida olib borilgan ishlarni deyarli uchratmaymiz.

Demak, dastlab “Hojoki”da qo‘llangan metaforalarni ko‘rib o‘tamiz:

“Hojoki” da qo‘llangan metaforalar (jadval 1)

N:	“Hojoki”da metaforalarning misollarda berilishi	Metafora	Metaforalarning ramzlar lug‘ati(1196)”asosidagi ma’nolari	“Xalqaro
1.	ゆく川の流れは絶えずして しかも元の水にあらず。 Oqayotgan daryo bir zum to‘xtamas, hozirgi suv oldingisi bo‘lolmas.	ゆく川 (daryo)	“Daryo” hamda “suv” so‘zları “Xalqaro ramzlar lug‘ati (Sekai shinboru jiten)”ga ko‘ra “daryo so‘zi “kosmos”, “dunyo”, “shakl o‘zgarishi”,	

¹ <https://www.jstor.org/stable> (Yapon mumtoz adabiyoti tadqiqotlari).

² <https://www.enotes.com/kamo-no-chomei> (Mumtoz adabiyotlar fondi).

2		水(suv)	“boylik”, “suv” esa “hayot” va “o‘lim”, “inson” ning ramzi ekanligi yoziladi(B.209.).
3.	よどみに浮かぶうたかたは、かつ消え、かつ結びて、久しくとどまりたたるためしなし。 Goh ko‘rinib, goh yo‘qolib borayotgan suv ustidagi pufakchalar doimiy emas.	うたかた(pufakchalar)	Pufakchalar inson hayotiga muqoyasa qilinadi, shuningdek vaqt, dunyo so‘zlarining majozi hamdir(B.201.).
4.	玉敷の都のうちに、棟を並べ、甍を争へる、高き、賤しき、人の住.... Olmosdan gilam yozilgan shaharda past-baland ular qad rostlab turibdi. Ammo ularning ham hech biri abadiy emas, avvalgilaridek yo‘qlikka mahkum.	玉敷の都(Olmos yozilgan shahar)	Bu metafora dunyo so‘zi o‘rnida qo‘llanmoqda. Olmosdek yal-yal chiroyli ko‘rinsa-da, aslida o‘tkinchi. Shahar so‘zi dunyo ma’nosida keluvchi hollar ko‘p uchraydi(B.761.).
5.	その主と住みかと、無常を争ふさま、いわば朝顔の露に異ならず。	主と住みか(uy va uning sohibi)	Uy samo, borliq, dunyo ramzlarida qo‘llanadi(T.T.B.31.).
6.	Uy va uning sohibi o‘tkinchilikda pechakgul va unga qo‘ngan tonggi shabnamdir.	朝顔の露(pechak gul va shudring)	Pechakgul dunyo, shabnam esa inson metaforalaridir.(T.T.B.31.) .

“Hojoki”da hammasi bo‘lib 26 ta metafora tahlil qilindi va ularning ma’nosidan ko‘rinadiki, metaforalar aynan “dunyo”, “inson” tushunchalariga nisbatan ishlataligan hamda ularning o‘tkinchi ekanligini ta’riflaydi.

O. Tomoyuki Lakoff va Johnson tomonidan metaforaning ikki: ong bo'shliq(mental space) ya'ni o'xshayotgan narsa, hodisalar taalluqli bo'lgan "kelib chiqish asosi"(sauce domain), o'xshatilayotgan narsa, hodisalar tegishli bo'lgan "maqsad asosi"(target domain)dan iborat ekanligini aytadi hamda "Argument is war" metaforasi tahlilini keltirib o'tadi³. Aynan shu shaklda "Hojoki" da qo'llangan "daryo" metaforasini ko'rib chiqaylik.

Aloqadorlik (Correspondence)

Kelib chiqish asosi (sauce domain) Maqsad asosi(target domain)

Daryo

Dunyo

Suv.....inson

Suvning oqishi.....o'zgarish, davomiylik

Pufakchalar.....inson hayoti

kabi xususiyatlar bilan inson hayoti davomida orttirgan tasavvur dunyosi, dunyoqarashi orqali, o'zi uchun mavhum bo'lgan narsalarni osonroq shaklda ifodalashga va tushinishga harakat qilgan. "Kelib chiqish asosi" – inson tajribasiga tayangan "daryo" metaforasi, boshqa bir, mavhum tushuncha – "maqsad asosi" "dunyo" so'zini ifodalash orqali "o'tkinchilik(mujo)" konseptual metaforasini izohlagan.

"Tsuredzuregusa" asarida foydalanilgan metaforalarning tasnifi

Yoshida Kenko (1284-1350) mashhur yapon yozuvchisi va buddist monaxidir. Uning nodir asar namunasi sifatida tanilgan "Tsuredzuregusa" (Omonat yaproqlar) asari 1330-1332-yillar mobaynida yaratilgan. Aslida, shinto oilasida tug'ilgan bo'lishiga qaramay, zen-buddizm yo'nalishiga e'tiqod qiladi va umrining so'ngida dunyodan voz kechadi.

"Tsuredzuregusa" asarining Kamakura davridan to hozirga qadar kitobxonlar orasida ko'p o'qilishi unda aynan buddizm g'oyalarining oson tilda ifodalanganligida deb baholanadi⁴.

Shunday ekan Kenko "mujo"ni ifodalash maqsadida qanday metaforalardan foydalanganini ko'rib chiqaylik.

"Tsuredzuregusa" da qo'llangan metaforalar (jadval 2)

³ Tomoyuki O. A network of construction of Japanese based on Existential Construction. – J.: Hitsujisho, 2002. – B. 137.

⁴ Hiroaki S. Mujotoha nanika. – J.: Overlook, 1995. – B.193.

N:	“Tsurezuregusa” da metaforalarning misollarda berilishi	Metaforalar	Metaforalarning “Xalqaro ramzlar lug‘ati (1196)” asosidagi ma’nolari
1.	ありたきことは、まことしき文の道、作文・和歌・くわんげんの道、また有職に公事の方、人の鏡ならむこそいみじかるべけれ。Adabiyot, she’riyat,musiqqa, din yo‘li insonning ko‘zgusidir.	鏡 (ko‘zgu)	Buddizmda “oyna” nafsidan ozod bo‘lgan poklik timsolidir. Shuningdek toza yurak va istaklaridan voz kechgan qalbni ifodalaydi(B.213.).
2.	家居の、つきづきしくあらまほしきこそ、仮の宿りとは思へど、興あるものなれ。Uy qarzga berilgan boshpanadir. Shu bois ham unga mehr qo‘ymaslik lozim.	仮の宿り (qarzga berilgan boshpana)	Bu so‘z, asosan, dunyo metaforasida ishlatiladi. Islom diniga ko‘ra dunyo karvonsaroy, undagi xonalar esa karvondagilarga qarzga beriladi va bu so‘z aynan inson va uning hayoti ramzidir.(B.1107.).
3.	同じ心ならむ人と、しめやかに物語して、おかしきことも、世ははかりだとことも...Bir xil dunyoqarashga ega do‘s bilan ajoyib suhbat qurib, g‘alati holat va dunyoning tarozi ekanini unutasan.	はかり (tarozi)	Tarozi tenglik, muvofiqlik ramzidir(p.761.).
4.	折節の移り変はるこそ、ものごとにあはれなれ。 Fasllar o‘zgaruvchanligi uchun ham qiymatga egadir.	季節 (fasl)	Fasl adabiyotlarda turli xil ramzlarni ifodalaydi. Bahor-yoshlik, yoz-shakllanish, kuz-kamolga yetish, qish esa botish, o‘chish, kuchsizlanish demakdir.

			Shuningdek, fasllar muqaddas hayovonlarning ham ramzidir. Bahor qo‘zichoq, kuz quyon kabi.(p.456.).
5.	Sentabr oyining boshlarida do‘stim bilan sayr etdik. U meni bir joyga olib bordi va u yerdagi maysaga qo‘ngan shudring, mayin shabada insonga huzur baxsh etardi. Do‘stim bir eshikka kirdi va birozdan so‘ng ortga qaytdi. Eshikni bir chiroyli ayol yopdi va men uni kuzatdim. Oradan bir oylar chamasi do‘stim vafot etdi.	Ayol	Ayol hayot bag‘ishlovchi, uni asrovchi ramzdir.(p.624.).
6	かたくなるひとの、その道知らぬは、そぞろに神のごとくにいへでも、道知れる人はさらに信もおこさず。Bu yo‘lni bilmaydigan inson xudoni tanimaydi, tushungani esa e’tiqodga ega.	道(yo‘l)	Yo‘l so‘zi haqida simvollar lug‘atida yozib o‘tilmagan. Lekin T. Takedaning “Tsurezuregusa” tadqiqotida “yo‘l”, buddizmning zen yo‘nalishiga olib boruvchi usul, yo‘l sifatida bayon etiladi ⁵ .
7.	人は蟻に集まりて、東西に急ぎ、南北に走る。 Inson chumoli va uning kabi yig‘ilib sharq-u g‘arbga shoshiladi, shimol-u janubga chopadi.	蟻(chumoli)	Chumoli jamoa, mehnatkash va ishonchli kelajakning ramzlaridir(B.45.).

⁵ Takeda T. Tsurezuregusa. – J.: Kakugawashoten, 2002. – B. 203.

Asarda 50 ga yaqin metaforalar qo'llangan bo'lib, ular dunyo va uning o'tkinchilagini tasvir etadi. Umrining so'ngi yillarida dunyodan voz kechib, budda ibodatiga tutingan, dunyo va o'tkinchilik g'oyasi asosida o'z hayot yo'lini qayta tahlil qilgan Kenko hayotiy aqidasini metaforalar asosida chiroyli bayon etadi. "Tsureduregusa" asari aynan "o'tkinchilik (mujo)" g'oyasini targ'ib etish maqsadida yozilgan⁶.

Asarlarda qo'llangan metaforalarning diniy-falsafiy talqini

Dastlabki bobda kognitiv lingvistika nazariyasida metaforaning o'rni, tushunchasi haqida so'z yuridik. Higashi M. Lakoff va Johnson nazariyasida metafora hayotiy detallar asosida mavhum hodisalarni izohlashi, din mavhum tushuncha va baayni metaforalar, hattoki, diniy, muqaddas kitoblarda qo'llanganini aytib o'tadi⁷.

K. Ao'ki ham ilmiy ishida din haqida to'xtalib o'tadi. Asosan, xristianlik dinining muqaddas kitobi "Injil" da keltirilgan jumlalarni keltirib ularni metafora sifatida baholaydi va quyidagicha misolni keltiradi:

4) 「キリスト教ではイエスの「われは戸なり」、「われはぶどうの木なり」、「われは道なり、真理なり、生命なり」などとというメタファー表現はきわめて多い⁸。

"Kirisutokyodeha Iesuno "Wareha to nari", "Wareha budouno ki nari", "wareha michi nari, seimei nari"".

"Xristian dinida Isus tilidan aytilgan "Biz eshikmiz", "Biz uzum daraxtimiz(vinomiz)", "Biz yo'lroz, hayotmiz"".

K. Aoki fikrini davom ettirib bu kabi so'zlar aynan metafora ekanligini, dinning mavhum, borliqdan anglanmaydigan tushunchalarini ochib berishga qaratilganini aytib, "Men vinoman" metaforasini, inson vino ichgandan so'ng qanchalik lazzatlanib, huzur-xalovat topsa, din yo'lini tanlagach ham ayni shu farag'otga erishadi kabi fikrni jonli tarzda yetkazishga harakat qilgan deb yozadi.

M. Higashi esa "Metafora va buddizm" nomli ilmiy ishida Buddha o'gitlari doirasida asosan quyidagi ikki xil tushunchani ifodalashda metafora qo'llangani tahlilini beradi:

- a) "苦しむ" – qiyinchilik;
- b) "無常" – o'tkinchilik;

⁶ O'sha asar. – B. 225.

⁷ Higashi M. Bukkyoto metafa-. – J.: Tokyo Gaikoku daigaku, 2011. – B. 9.

⁸ Aoki K. Ninchiimironno tetsugaku. – J.: Ooshukanshoten, 2002. – B. 38-57.

Bu g‘oyalarni ifodalashda metaforalar qo‘llangan misollarni keltirib tahlil qiladi. Y. Mori “Buddizm va metafora, yanada batafsil aytilsa, “qiyinchilik” va metafora, “o‘tkinchilik” va metafora Buddanining o‘gitlari orasida ko‘plab qo‘llangan. Shu sababli ham buddizm ta’sirida yozilgan (“Hojoki”, “Tsurezuregusa”) asarlar va she’rlarda ham “o‘tkinchilik” g‘oyasining ifodalanishida metaforalardan keng qo‘llanilgan” deb yozadi⁹.

XULOSA

Shunga ko‘ra yuqorida keltirib o‘tilgan, mumtoz manbalarda keltirilgan metaforalarni hozirgacha qilingan tadqiqot ishlari doirasida hamda Lakoff va Johnsonning “kelib chiqish asosi(sauce domain)”, “maqsad asosi(target domain)” nazariyasiga asoslanib diniy-falsafiy ma’no tashishga xizmat qilgan deb xulosa qilish mumkin. Lekin, “Tsurezuregusa” asarining yakuniy bobida Kenko bolalik chog‘larida eshitgan bir qo‘sinqni keltiradi va qo‘sinqda harflar metaforalar orqali ifodalanadi. Tadqiqotchi T. Takeda Kenko bu qo‘sinqni bolaligida eshitganini, asar yakunida uni eslab, zuihitsuning an’anasini davom ettirganini yozadi, ammo uning “o‘tkinchilik” g‘oyasi, buddizm bilan aloqasi yo‘qligini aytib o‘tadi¹⁰.

Yana bir tadqiqotchi U. Kamida esa asar buddizm ruhiyatida yozilgan bo‘lsa-da, qo‘sinqqa bu g‘oya umuman daxldor emasligini aytib o‘tadi¹¹.

Shu sababli, “Hojoki”da qo‘llangan metaforalarning hammasi (26) diniy-falsafiy ma’noga ega, “Tsurezuregusa”da qo‘llangan 50 metaforadan to‘rt(futatsu moji, ushino kakumoji, suguna moji, yugami moji) metafora diniy-falasafiy ma’no tashishga xizmat qilmaganligi o‘rganildi.

REFERENCES

1. Tomoyuki O. A network of construction of Japanese based on Existential Construction. – J.: Hitsujisho, 2002. – B. 137.
2. Hiroaki S. Mujotoha nanika. – J.: Overlook, 1995. – B.193.
3. Takeda T. Tsurezuregusa. – J.: Kakugawashoten, 2002. – B. 203.
4. Higashi M. Bukkyo metafa-. – J.: Tokyo Gaikoku daigaku, 2011. – B. 9.
5. Aoki K. Ninchiimironno tetsugaku. – J.: Ooshukanshoten, 2002. – B. 38-57.
6. Mori Y. Bukkyo, sakuhin, metafa-. – O.: Osakadaigaku, 2009. – B. 67.
7. Takeda T. Tsurezuregusa. – J.: Kakugawashoten, 2002. – B. 253.
8. Kamida U. Kenko to mujo. – K.: Kansaidaigaku,1996. – B. 273.

⁹ Mori Y. Bukkyo, sakuhin, metafa-. – O.: Osakadaigaku, 2009. – B. 67.

¹⁰ Takeda T. Tsurezuregusa. – J.: Kakugawashoten, 2002. – B. 253.

¹¹ Kamida U. Kenko to mujo. – K.: Kansaidaigaku,1996. – B. 273.

9. Kosimov, A. (2021). THE IMPACT OF SELF-EFFICACY IN ENHANCING ENGLISH PROFICIENCY AMONG UZBEK HIGH SCHOOL STUDENTS. British View, 6(1).
10. Umaralieva, M. M. (2014). THE IMPORTANCE OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING AND LEARNING. In ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ЛИНГВООБРАЗОВАНИЕ (pp. 433-436).
11. Umaralieva, M. (2021). SOME CHALLENGES IN ENCOURAGING INDEPENDENT LEARNING. Academic research in educational sciences, 2(4), 1878-1882.
12. Sultanovna U. S. ARTISTIC PSYCHOLOGISM IN THE WORK OF S. RICHARDSON "PAMELA OR THE REWARDED VIRTUE". – 2020.
13. Ugli, Qurbonov Nasibullo Khabibullo, Durdona Uktamova Bakhtiyor Qizi, and Kholmatov Shakhriyor Zokhidjon Ugli. "TEACHING VOCABULARY TO HIGH-LEVEL STUDENTS." Archive of Conferences. Vol. 3. No. 3. 2020.
14. Mamaeva M. Э., Шокирова М. Ш. Роль лингвистического образования в развитии культуры личности студента //Потенциал современной науки. – 2016. – №. 1. – С. 140-143.
15. Mamaeva, M. Э., & Шокирова, М. Ш. (2020). EDUCATIONAL POTENTIAL OF FOREIGN LANGUAGES. In Проблемы развития современного общества (pp. 400-403).
16. Холматов Ш., Йўлдошева М. ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СЎЗ УРҒУСИ ДАРАЖАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3.
17. Игамбердиева, Ш. (2021). Развитие навыков творческого сотрудничества будущих преподавателей иностранного языка при использовании технологии «бит-урок». Общество и инновации, 5(11/S), 190-198.
18. Kosimov, A. (2022). THE IMPORTANCE OF CHOOSING APPROPRIATE ASSESSMENT TOOLS IN LANGUAGE TEACHING AND ITS IMPACT TO SECOND LANGUAGE ACQUISITION. British View, 7(1).
19. Usmonova, D. S. (2020). COMPARATIVE TYPOLOGICAL ANALYSIS OF SEMANTIC-STRUCTURAL FEATURES OF CONDITIONAL INCLINATION IN DIFFERENT SYSTEMATIC LANGUAGES. Проблемы современной науки и образования, (4-2), 21-23.
20. [https://www.jstor.org/stable/Yapon mumtoz adabiyoti tadqiqotlari](https://www.jstor.org/stable/Yapon_mumtoz_adabiyoti_tadqiqotlari).
21. <https://www.enotes.com/kamo-no-chomei> (Mumtoz adabiyotlar fondi).